

MENINGAKOKK INFEKSIYASI.

Dadamirzayeva Matluba.


Chortoq Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi Texnikumi

“Umumkasbiy fanlar” uyushmasi Yetakchi o'qituvchisi

Anatatsiya: Ushbu maqolada meningokokk infeksiyalarning kelib chiqish sabablari davolash va oldini olish chora tadbirlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Meningokokk, vaksina, profilaktika, infeksiya, nazofaringit

Meningokokk (yun *meninx*, *raeningos* — miya qobig'i va *kokkos* — don) — epidemik serebrospinal meningit kasalligini qo'zg'atuvchi mikroorganizm; kokklarga kiradi, juft sharsimon (diplokokk) ko'rinishda bo'ladi. Meningokokklar *Neisseriaceae* oilasi *Neisseria* urug'iga mansub. Meningokokkning (*Neisseria meningitidis*) sof kulturasini avstriyalik olim A. Vekselbaum 1887-yil meningit bilan og'rikan bemorning orqa miya suyuqligidan ajratib olgan. Meningokokklar tashqi muhit va dezinfeksiyalovchi eritmalar ta'siriga chidamsiz. Tabiiy sharoitda Meningokokklarga hayvonlar chidamli. Meningokokkning, asosan, A va V guruhlari ko'p uchraydi. **Meningokokk infeksiyasi** — meningokokklar qo'zg'atadigan o'tkir infeksiya kasallik. Meningokokk infeksiyasining manbai bemor, asosan, bakteriya tashuvchilar; ulardan mikroob atrofdagilarga havo tomchi yo'li orqali tarqaladi. Qish va bahorda ko'proq uchraydi. Meningokokk infeksiyasi burun va halqum shilliq pardasining yallig'lanib zararlanishi (nazofaringit), bosh miya yumshoq pardasining yiringli yallig'lanishi (yiringli meningit) yoki miya moddasining miya pardasi bilan birgalikda yallig'lanishi (meningoensefalit) yoki meningokokklar qonga tushganda ro'y beradigan meningokokksemiya sifatida o'tishi mumkin. Aksariyat bir bemorda kasallikning sanab o'tilgan barcha shakllari avj oladi.



Ko‘pincha kasallik alomatlari bo‘lmagani holda meningokokklarni tashuvchanlik kuzatiladi, bu, ayniqsa, xavfli. Tumov, yo‘tal, aksirish bilan o‘tadigan yallig‘lanish belgilari bo‘lgan (nazofaringit) bemor, kasallik qo‘zg‘atuvchisining tez tarqalishiga sabab bo‘ladi.

Nazofaringitda tomoq og‘riydi va achishadi, quruq yo‘tal tutadi, burun bitadi, burundan shilimshiq-yiringli, ba‘zan, qon aralash suyuklik keladi. Bosh aylanishi, og‘rishi, harorat ko‘tarilishi, burun qonashi mumkin.

Meningokokksemiya isitma bilan boshlanadi, badanga katta katta toshmalart oshadi. Ba‘zan nuqtasimon yoki yaxlit qon quyilishi mumkin. Bu juda og‘ir



kechadi, yurak faoliyati buziladi, ichki a‘zolarga qon quyiladi. Vaqtida davo qilinmasa o‘lim ro‘y beradi.

Meningit ham, odatda, to‘satdan boshlanadi. Meningokokk tashuvchilik va meningokokk nazofaringiti kasallikning maxalliy turiga kiradi. Meningokokksemiya va meningokokkmeningit tarqoq turlar hisoblanadi.

Bemor kasalxonada davolanadi. Davo nechogli erta boshlansa, natija shunchalik yaxshi bo‘ladi. Profilaktika maqsadida meningokokk vaksinasi qo‘llanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

G‘iyasova R.E Dadamuhammedova X.E

Dadamirzayeva Matluba.

Chortoq Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi Texnikumi

“Umumkasbiy fanlar” uyushmasi Yetakchi o‘qituvchisi